

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING TAHLILI

Eshquvatov Azizjon Zoxid o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy investitsiyalar samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida “O‘zmetkombinat” AJning 2018-2023-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Moliyaviy investitsiyalar hajmi, tarkibi va jami aktivlardagi ulushi baholandi. Tahlil natijalari investitsiyalar hajmi barqaror o‘sganini va ularning korxona aktivlaridagi ahamiyati ortganini ko‘rsatdi. Investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni monitoring qilish va korporativ boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish moliyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qilgani aniqlandi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy investitsiyalar, aksiyadorlik jamiyati, investitsiya portfeli, aktivlar, korporativ boshqaruv, samaradorlik.

Аннотация

В данном исследовании был проведён анализ эффективности финансовых инвестиций в акционерных обществах. В качестве объекта исследования были изучены финансовые показатели АО «Узметкомбинат» за 2018-2023 годы. Были оценены объём, структура финансовых инвестиций и их доля в активах предприятия. Результаты анализа показали устойчивый рост инвестиций и повышение их значения в структуре активов. Было установлено, что диверсификация инвестиционного портфеля, мониторинг рисков и развитие корпоративного управления способствовали повышению финансовой эффективности.

Ключевые слова: финансовые инвестиции, акционерное общество, инвестиционный портфель, активы, корпоративное управление, эффективность.

Abstract

This study analyzed the efficiency of financial investments in joint-stock companies. The financial indicators of Uzmetkombinat JSC for 2018-2023 were examined as the research object. The volume, structure, and share of financial investments in total assets were evaluated. The results showed a steady increase in investment volume and a growing role of investments in the asset structure. The study found that portfolio diversification, risk monitoring, and the development of corporate governance mechanisms contributed to improved financial performance and investment efficiency.

Keywords: financial investments, joint-stock company, investment portfolio, assets, corporate governance, efficiency.

ASOSIY QISM

Mamlakatda fond bozorini rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar muomalasini kengaytirish, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion faolligini oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda[1]; [2]; [3]. Bu jarayon moliyaviy investitsiyalar hajmi, tarkibi, yo'nalishlari va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu jihatdan, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy investitsiyalar shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil moliyaviy investitsiyalarning mavjud holatini baholash, ularning o'sish omillarini aniqlash, investitsion faollikka ta'sir etuvchi muammolarni ochib berish hamda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslashga xizmat qiladi[2].

Tadqiqot ishida tahlil jarayonini amalga oshirishda avvalo, tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinadigan aksiyadorlik jamiyatlari doirasi va tahlil davri aniq belgilanishi zarur. Bu yondashuv moliyaviy investitsiyalar shakllanishi, ularning tarkibiy o'zgarishlari va rivojlanish tendensiyalarini izchil baholash imkonini beradi.

“O'zmetkombinat” AJ O'zbekiston sanoat tarmog'ida muhim o'rin egallovchi yirik aksiyadorlik jamiyatlaridan biri bo'lib, mamlakat metallurgiya sanoatining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Korxona faoliyatini tahlil qilish uning ishlab chiqarish salohiyati, moliyaviy barqarorligi, investitsion imkoniyatlari va kapitaldan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida moliyaviy investitsiyalarni shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish korxonaning uzoq muddatli rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirish hamda bozor qiymatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan “O'zmetkombinat” AJ faoliyatini tahlil qilish orqali korxonaning moliyaviy resurslari, aktivlar tarkibi, daromadlilik ko'rsatkichlari, investitsion yo'nalishlari va moliyaviy natijalaridagi o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

1-jadval

“O'zmetkombinat” AJda moliyaviy investitsiyalar hajmi va ularning jami aktivlardagi ulushi dinamikasi[4], (mlrd. so'mda)

Yil	Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar	Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar	Jami moliyaviy investitsiyalar	Jami aktivlar	Moliyaviy investitsiyalarning aktivlardagi ulushi, foizda
2018	154,0	16,7	170,7	4 426,1	3,9
2019	130,9	23,7	154,6	7 979,8	1,9
2020	308,2	167,0	475,2	9 933,2	4,8
2021	307,5	316,4	623,9	12 241,3	5,1
2022	282,4	372,1	654,6	12 776,7	5,1
2023	449,2	352,7	801,9	13 701,2	5,9

Mazkur 1-jadvalda “O'zmetkombinat” AJning 2018-2023-yillar davomida uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalari, jami moliyaviy investitsiyalar

hajmi, jami aktivlari hamda moliyaviy investitsiyalarning aktivlar tarkibidagi ulushi aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlari korxonada moliyaviy investitsiyalar hajmining yillar kesimida o'zgarish tendensiyasini aniqlash va ularning aktivlar tarkibidagi ahamiyatini baholash imkonini beradi.

XULOSA

Tahlil natijalariga ko'ra, 2018-yilda moliyaviy investitsiyalar hajmida pasayish kuzatilgan bo'lsa, 2029-yildan boshlab ularning miqdori sezilarli darajada oshgan[4]. Ayniqsa, 2023-yilda jami moliyaviy investitsiyalar 801,9 mlrd so'mga yetib, jami aktivlardagi ulushi 5,9 foizni tashkil etgan. Bu holat "O'zmetkombinat" AJda moliyaviy investitsiyalar portfelining kengayib borayotganini hamda korxona aktivlari tarkibida moliyaviy investitsiyalarning ahamiyati ortayotganini ko'rsatadi.

Moliyaviy investitsiyalar tarkibida qisqa muddatli investitsiyalar ulushining ortib borishi korxonaning likvidlikni saqlash va qisqa muddatli daromadlilikni oshirishga intilayotganligini ifodalaydi. Uzoq muddatli investitsiyalar hajmining ham barqaror o'sishi esa strategik investitsion siyosatning shakllanayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot yakunida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, investitsiya risklarini muntazam monitoring qilish, zamonaviy moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish hamda investitsion qarorlar qabul qilishda korporativ boshqaruv tamoyillarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/4664142>
2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-may O'RQ-370-son "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-2382409>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kapital bozorini rivojlantirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga oid farmon va qarorlari.
4. "O'zmetkombinat" AJning 2018-2023-yillardagi yillik moliyaviy hisobotlari.
5. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. - New York: McGraw-Hill Education, 2022.